

**SamDVMChBU "Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya" kafedrası
assistenti A.H.Hatamovning 6440100 – Veterinariya medisinasi ta'lim
yo'nalishi talabalari uchun «Veterinariya mikrobiologiyasi va
immunologiyasi» fanidan «Salmonellyozni laboratoriya diagnostikasi»
mavzusidagi ochiq laboratoriya dars ishlanmasiga**

TAQRIZ

Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi fani veterinariya mutaxassislarini tayyorlash uchun ishlab chiqilgan o'quv rejasining majburiy fanlar blokiga kirib, qishloq xo'jalik hayvonlarida infeksiyon kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarning umumiy xususiyatlarini, tabiatda, organizmda va ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida xilma-xil biologik jarayonlardagi roli, ular chaqiradigan kasallikka diaqnoz qo'yish, maxsus oldini olishni zamonaviy, samarador usullari, qo'llaniladigan biopreparatlar bo'yicha yo'nalish profiliga mos professional xizmat ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantiradi.

Shu boisdan mazkur fan veterinariya medisinasi ta'lim yo'nalishi bakalavlarni shakllantirishdagi majburiy fanlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu fanni asosiy vazifalari talabalarga mikroorganizmlarning umumiy xususiyatlarini, organizmda va ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida biologik jarayonlardagi roli va nazariy asosi, kasal hayvonlardan patologik materiallar olish va laboratoriyaga yo'llash, laboratoriya tekshirish usullarini, infeksiyon kasallik qo'zg'atuvchilarini aniqlash, infeksiyon kasalliklarga o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yish, maxsus oldini olish chora-tadbirlarini to'g'ri tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilish iborat.

Laboratoriya darsini o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan dars ishlanmasi fanning o'quv va ishchi o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, uning tarkibida mavzuning maqsadi, o'quv elementlari, ta'lim texnologiyalari, tayanch iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Shu bilan birgalikda dars ishlanmasining asosiy qismi: salmonellyozni tarifi va qisqacha tasnif, kasallikka gumon qilingan hayvonlardan patologik namuna olish, laboratoriyaga tekshirish uchun yuborish, laboratoriyada tekshirish usullari bayon etilgan.

Tayyorlangan ushbu laboratoriya darsining ishlanmasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonun talablariga mos keladi deb hisoblayman va o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya yetaman.

**Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari
tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari
xavfsizligi davlat markazi direktori**



M.M.Allamurodova

SamDVMChBU “Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya” kafedrasini
assistenti A.H.Hatamovning 6440100 – Veterinariya meditsinasi ta’lim
yo’nalishi talabalari uchun «Veterinariya mikrobiologiyasi va
immunologiyasi” fanidan «Salmonellyozni laboratoriya diagnostikasi»
mavzusidagi ochiq laboratoriya dars ishlanmasiga

TAQRIZ

Respublikmiz aholisini sifatli va arzon chorva mahsulotlariga bo’lgan talabini qondirish, ushbu maqsadda chorvachilik sohasida kadrlarni shu jumladan veterinariya mutaxassislarini tayyorlash Davlat siyosatining ustivor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa “Ta’lim to’g’risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da o’z ifodasini topgan.

Chorvachilikda eng katta iqtisodiy zarar keltiruvchi infeksiyon kasalliklarga o’z vaqtida, to’g’ri tashxis qo’yish davolash va qarshi kurash tadbirlarini samarali ishlab chiqishga asos bo’ladi. Shuning uchun talabalar Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi fanini puxta o’zlashtirishni zarur. Veterinariya vrachi bo’lib shakllanishi uchun talaba kasal hayvonlardan patologik materiallar olish va laboratoriyaga yo’llash, laboratoriya tekshirish usullarini, infeksiyon kasallik qo’zg’atuvchilarini aniqlash, ularning xususiyatlarini o’rganish to’g’ri tashxis qo’yish, maxsus oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo’yicha nazariy va amaliy bilimlarni mukammal egallashi lozim.

A.H.Hatamovning 6440100 – Veterinariya meditsinasi ta’lim yo’nalishi talabalari uchun “Veterinariya mikrobiologiyasi va immunologiyasi” fanidan «Salmonellyozni laboratoriya diagnostikasi» mavzusidagi ochiq laboratoriya dars ishlanmasi fanning o’quv va ishchi o’quv dasturi asosida tayyorlangan bo’lib, uning tarkibida mavzuning maqsadi, o’quv yelementlari, ta’lim texnologiyalari, tayanch iboralar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati berilgan.

Bundan tashqari dars ishlanmasining asosiy qismi: salmonellyozni tarifi va qisqacha tasnif, kasallikka gumon qilingan hayvonlardan patologik namuna olish, laboratoriyaga tekshirish uchun yuborish, laboratoriyada tekshirish usullari va uni o’qitishda qo’llanilgan interfaol talim texnologiyalari ko’rsatib o’tilgan.

Hatamov Akbar Hudoyberdiyevich tomonidan tayyorlangan ushbu laboratoriya darsining ishlanmasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risida” gi qonun talablariga mos keladi deb hisoblayman va o’quv jarayonida qo’llash uchun tavsiya yetaman.

“Parranda, baliq, asalari va mo’ynali
hayvonlar kasalliklari” kafedrasini
dosenti, v.f.n

